



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalaridan 34 452,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,2 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022- yil yanvar-may oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 20,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 24,6 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 13,1 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 894,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-may

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-may

FHI,% da



2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27 626,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,2 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-may


83,4 %

2022- yil yanvar-may

80,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,9 % (7,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,0 % (85,8 %) va quyi texnologiyalisi – 5,9 % (6,6 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,5 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 76,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 77,3 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 97,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,1 % (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Kalsiy xlorid




Suvsiz ammiak




Sement



Azot



Yogurt



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 329,1 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 135,4 % ga oʻsgan), 100,5 ming tonna azot mochevina (karbamid) (154,7 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (293,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan oʻsish, % da
Portlandsement, ming tonna.	1 547,4	1 133,1	73,2
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	65,0	100,5	154,7
Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, tonna	26 721,0	25 790,7	96,5
Sirka kislotasi, tonna	1 658,0	2 082,0	125,6
Kislorod, ming m ³ .	57,9	69,6	120,3
Suvsiz ammiak, ming tonna,	243,0	329,1	135,4
Kalsiy xlorid, ming tonna.	1,0	3,0	293,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna	2 187,4	2 407,7	110,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 77,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,5 % ni tashkil etdi, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 77,3 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 108,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 21 342,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 78,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 64,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 241,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 732,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 169,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 87,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 472,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %, fizik hajm indeksi 109,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 339,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni, fizik hajm indeksi 142,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 218,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 912,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 124,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 493,0	4 931,7	438,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 101,5	2 303,8	202,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	21 177,4	26 295,1	5 117,7
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	15 256,0	21 211,5	5 955,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 120,7 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 117,0 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 687,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-may

42,6 %

2022- yil
yanvar-may

41,9 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-may

57,4 %

2022- yil
yanvar-may

58,1 %





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021- yil yanvar-may oylarida 0,03 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,2 % ni, Navoiy shahri 22,3 % ni, Qiziltepa tumani 13,3 % ni, Xatirchi tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (131,9 %) hamda Navbahor tumanida (118,9 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,2 % ni shuningdek, Navoiy shahriga 22,3 % ni, Qiziltepa tumanida 13,3 % ni, Xatirchi tumanida 12,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 28,0 % ni shuningdek, Navoiy shahrida 20,8 % ni, Xatirchi tumanida 12,1 % ni, Qiziltepa tumanida 8,9 % ni tashkil etdi.

590,3 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-may

881,3 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-may

981,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-may



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi







o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 24,4 % ni shuningdek, Karmana tumani 21,2 % ni, Qiziltepa tumani esa 19,4 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 86,1 % ni, shuningdek, Karmana tumani 9,5 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

2020- yil

22 894,7 mlrd. so‘m

2021- yil

28 807,0 mlrd. so‘m

2022- yil

34 452,7 mlrd. so‘m



2020- yil


102,4 %

2021- yil

107,8 %

2022- yil

105,5 %




FHI, % da

mlrd. so‘m

Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 3 774 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 819 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,7 %) Navoiy shahriga, 624 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 473 tasi (12,5 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan